

## I. DEMOGRAFIYA VA MEHNAT BOZORI


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019 yilning 1 yanvar holatiga viloyatda doimiy aholisi soni 3798,7 ming kishini tashkil qildi va yil boshidan 78,6 ming kishiga yoki 2,1 foizga ko'paydi.

### Doimiy aholi soni

(2019 yil 1 yanvar holatiga, ming kishi)

	Jami aholi Soni	shu jumladan:		Jami aholi sonidan:	
		erkaklar	ayollar	shahar aholisi	qishloq aholisi
<b>Viloyat</b>	<b>3798,7</b>	<b>1909,0</b>	<b>1889,7</b>	<b>1413,9</b>	<b>2384,8</b>
<i>shaharlar</i>					
Samarqand	538,2	260,4	277,8	538,2	-
Kattaqo'rg'on	88,0	44,0	44,0	88,0	-
<i>tumanlar:</i>					
Oqdaryo	155,5	78,2	77,3	61,3	94,2
Bulung'ur	182,8	93,1	89,7	41,0	141,8
Jomboy	167,6	84,7	82,9	37,7	129,9
Ishtixon	247,7	124,5	123,2	67,7	180,0
Kattaqo'rg'on	267,0	135,3	131,7	51,1	215,9
Qo'shrabot	128,2	65,4	62,8	12,2	116,0
Payariq	244,1	126,0	118,1	71,5	172,6
Pastdarg'om	346,0	173,5	172,5	90,8	255,2
Paxtachi	141,3	70,0	71,3	27,8	113,5
Samarqand	246,3	124,4	121,9	15,0	231,3
Narpay	208,6	106,1	102,5	63,0	145,6
Nurobod	147,0	73,8	73,2	17,0	130,0
Tayloq	195,9	98,8	97,1	23,9	172,0
Urgut	494,5	250,8	243,7	207,7	286,8

**2019 yil 1-yanvar holatiga doimiy aholi soni**  
(ming kishi)




**2018 yilning yanvar-dekabrda aholining tabiiy harakati**  
(kishi)

	kishi			har ming aholiga, nisbatan	
	2017y.	2018y.	o'sish, kamayish	2017y.	2018y.
Tug'ilganlar	89 956	98 909	8 953	24,4	26,3
O'lganlar	16 661	16 254	-407	4,5	4,3
Tabiiy o'sish	73 295	82 655	9 360	19,9	22,0
Nikohlar	38 180	37 449	-731	10,4	10,0
Ajralishlar	3 852	3 725	-127	1,0	1,0

## 2018 yilning yanvar-dekabrida aholining tabiiy harakati

(kishi)



Tug'ilish darajasining ko'payishi viloyatning Payariq (28,4 promilledan 31,1 promillega), Urgut (28,7 promilledan 31,3 promillega), Ishtixon (25,9 promilledan 28,5 promillega), Qo'shrabot (26,5 promilledan 28,9 promillega), Bulung'ur (25,1 promilledan 27,2 promillega), Tayloq (23,7 promilledan 25,9 promillega) ) tumanlarida va Kattaqo'rg'on shahrida (22,5 promilledan 23,2 promillega) kuzatildi.


**O'lim darajasi.** 2018 yilning yanvar-dekabrida vafot etganlar soni 16 254 kishini tashkil qildi va 2017 yilning shu davriga (16 712 kishi) nisbatan 458 taga kamaydi. O'lim koeffitsiyenti esa 4,3 promilleni tashkil qildi (2017 yil yanvar-dekabrda 4,5 promille).

O'lganlar sonining ko'payishi Bulung'ur (4,4 promilledan 4,7 promillega), Ishtixon (3,9 promilledan 4,0 promillega), Nurobod (4,2 promilledan 4,3 promillega), Jomboy (4,4 promilledan 4,3 promillega), tumanlarida kuzatildi.

O'lganlar umumiy sonidan 59,7 foizi - qon aylanish tizimi kasalliklari, 7,7 foizi - o'sma kasalliklari, 6,7 foizi - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlar, 6,2 foizi - ovqat hazm qilish organlari kasalliklari, 3,9 foizi - nafas olish organlari kasalliklari, 1,4 foizi - infeksiya kasalliklari va qolgan 14,4 foizi esa boshqa kasalliklar bilan kasallanganligi sababli vafot etgan.

## O'lganlar umumiy sonining tarkibiy tuzulishi

(2018 yilning yanvar-dekabr holatiga, foizda)



**Nikoh va ajralishlar.** 2018 yilning yanvar-dekabrda FHDYO organlarida 37 449 ta nikoh va 3 725 ta ajralishlar ro'yxatga olindi. Har ming aholiga nisbatan 10,0 promille nikoh (2017 yilning tegishli davrida - 10,4 promille) va 1,0 promille ajralishlar (2017 yilning tegishli davrida - 1,1 promillega) to'g'ri keldi.

**Migratsiya.** Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 12 017 kishini, shu davr mobaynida ko'chib ketganlar soni esa 15 774 kishini tashkil qildi. Migratsiya qoldig'i minus 3 757 kishi (2017 yilning shu davrida minus 5 150 kishi)ga teng bo'ldi.

## 2018 yil yanvar-dekabrda aholining migratsiya ko'rsatkichlari


(kishi)

	Kelganlar		Ketganlar		Migratsiya sal'dosi	
	2017y.	2018y.	2017y.	2018y.	2017y.	2018y.
<b>Viloyat</b>	<b>10 326</b>	<b>12 017</b>	<b>15 272</b>	<b>15 774</b>	<b>-4 946</b>	<b>-3 757</b>
<i>shaharlar</i>						
Samarqand sh.	1 992	3 431	3 089	2 995	-1 097	436
Kattaqo'rg'on sh.	88	241	697	663	-609	-422
<i>tumanlar:</i>						
Oqdaryo	666	169	539	667	127	-498
Bulung'ur	881	854	1 118	1 093	-237	-239
Jomboy	742	847	529	576	213	271
Ishtixon	635	578	939	941	-304	-363
Kattaqo'rg'on	892	644	1 028	1 026	-136	-382
Qo'shrabot	551	703	862	991	-311	-288
Payariq	138	421	1 230	1 342	-1 092	-921
Pastdarg'om	919	414	647	803	272	-389
Paxtachi	402	875	1 125	1 040	-723	-165
Samarqand	641	1 168	749	902	-108	266
Narpay	604	626	712	711	-108	-85
Nurobod	85	151	500	475	-415	-324
Tayloq	615	414	494	482	121	-68
Urgut	475	481	1 014	1 067	-539	-586

Eng katta minus qoldiqlar Kattaqo'rg'on shaharida (minus 479) hamda Payariq tumani (minus 860), Urgut (minus 589), Oqdaryo (minus 468), Nurobod (minus 398), Ishtixon (minus 357), Kattaqo'rg'on (minus 322), Qo'shrabot (minus 320), Bulung'ur (minus 234) va Paxtachi (minus 156) tumanlarida kuzatildi.


## 2018 yilning yanvar-dekabrda aholining tabiiy harakati

(har 1000 kishiga)



2018 yil yanvar-dekabrda bandlikka ko'maklashish markazlariga ishga joylashtirishda yordam berishni so'rab, 52 887 nafar fuqaro murojaat qildi. Ish qidirib murojaat qilganlar Samarqand shahri (5 244 kishi), Pastdarg'om tumani (4 861 kishi), Payariq (4 237 kishi), Kattaqo'rg'on (4 126 kishi), Bulung'ur (4 043 kishi), Paxtachi (3 418 kishi), Ishtixon (3 393 kishi) va Urgut (3 307 kishi) tumanlarida ko'p.

**Bandlikka ko‘maklashish markazlari orqali ishga joylashtirilgan fuqarolar soni**  
(kishi)



Bandlikka ko‘maklashish markazlariga murojaat qilgan fuqarolardan 26 627 nafari (barcha murojaat qilganlarning 104,4 foizi) ishga joylashtirildi. Ayniqsa ushbu ko‘rsatkich, Tayloq (murojaat etganlarning 111,3 foizi), Paxtachi (110,0 foiz), Kattaqo‘rg‘on (109,1 foiz), Jomboy (108,5 foiz), Nurobod (105,5 foiz), Qo‘shrabot (105,5 foiz), Narpay (102,7 foiz), Pastdarg‘om (102,1 foiz) tumanlarida va Samarqand shahri (104,2 foiz), Kattaqo‘rg‘on (119,9 foiz) shaharlarida yuqori darajada bo‘ldi.

**O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi\*  
yanvar-dekabr**

ming so‘m

	2017 yil	2018 yil*	O‘sish sur‘ati, foizda
<b>Viloyati</b>	1163,4	1431,3	123,0
Samarqand sh.	1423,0	1714,7	120,5
Kattaqo‘rg‘on sh.	1255,8	1502,0	119,6
tumanlar:			
Oqdaryo	1015,1	1227,4	120,9
Bulung‘ur	1071,0	1252,7	117,0
Jomboy	1210,5	1681,4	138,9
Ishtixon	1025,9	1283,0	125,1
Kattaqo‘rg‘on	962,4	1206,0	125,3
Qo‘shrabot	910,6	1158,2	127,2
Narpay	1005,4	1297,8	129,1
Nurobod	1082,0	1313,0	121,3
Payariq	896,2	1209,1	134,9
Pastdarg‘om	1071,1	1285,5	120,0
Paxtachi	949,6	1156,8	121,8
Samarqand	973,1	1185,8	121,9
Tayloq	967,8	1350,4	139,5
Urgut	1118,4	1169,6	104,6

\*) Qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik sub‘ektlarisiz, qayta hisoblangan